# QXM fakulteti talabalari o‘quv amaliyotida

Ayni damda Qishloq o‘jaligini mexanizatsiyalash fakulteti 2-bosqich talabalari "Agroinjenerlik" amaliyotini o‘tashmoqda. O‘quv amaliyoti Toshkent viloyati O‘rtachirchiq tumanida joylashgan TIQXMMIning amaliyot maydonlarida tashkil etilgan. O‘quv amaliyoti jarayonida talabalarimiz qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan yaqindan tanishib, o‘z tajriba va ko‘nikmalarini bevosita amaliy mashg‘ulotlar yordamida oshirishmoqda. Fakultetimizdan jami 250 nafarga yaqin talabalar o‘quv amaliyotiga jalb qilingan.

Darslar soat 8:00 dan 12:00 ga qadar davom etib, tushlikdan so‘ng talabalar madaniy xordiq chiqarishmoqda. So‘ngra o‘tilgan dars bo‘yicha hisobot topshirib, kechki ovqatdan so‘ng yana madaniy hordiq olib uyquga ketishmoqda. Kuni kecha Toshkent irrigatsiya va ishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori Mirzaev Bahodir Suyunovich QXM fakulteti dala o‘quv amaliyoti jarayonlari bilan tanishish maqsadida o‘quv poligoniga tashrif buyurdi. Shuningdek tashrif doirasida tanqidiy va tahliliy masalalar ham ko‘rib chiqildi.

**QXM fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari O.Usarov axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**